

Bolalar Muqaddas Kitobi Tasvirlab beradi

Hudoning
Ibrohimga
bergan
va'dasi



...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:

Byron Unger; Lazarus

Alastair Paterson

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:

M. Maillot; Tammy S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children

www.M1914.org

©2020 Bible for Children, Inc.

Lisenzia: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusxa ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Buyuk To'fondan
keyin, odamlar yer
yuzida yashab, reja
tuza boshlashdi.



“Biz osmonga yetadigan baland minorali buyuk shahar quramiz, va har doim birgalikda yashab kuchli halq bo'lamiz” - deyishdi.



Ularning hammamlari
bir tilda gapirishar
edilar.



Lekin Hudovand odamlarni, yer yuzining turli hil joylarida yashashlarini hohladi. Shuning U odamlarning tilini chalkashtirib yubordi va ular turli hil tillarda gapirishadigan bo'lishdi. Shunday qilib yangi tillar paydo bo'ldi.




Bir hil tilda gapiradigan odamlar, alohida guruh bo'lib yashadilar. Va shunday qilib Hudovandi Karim odamlarni turli hil joylarga tarqatib yubordi.




Ular qurayotgan buyuk shaharning qurilishi to'htatildi va bu shahar Babil deb ataldi, Babil so'zi "aralashuv" -degan ma'noni anglatadi.



Yillar o'tdi va Ur shahrida yashaydigan bir odam bor edi, uning ismi Ibrohim edi, Hudovand Ibrohimga shunday dedi: "O'z yeringdan chiqib, Men senga ko'rsatadigan yerga ket"-dedi.




Ibrohim Hudoga bo'ysundi. U Kan'on mamlakatiga qarab yo'lga tushdi. Ibrohim hotini Soray va jiyani Lutni o'zi bilan olib ketdi.



Kan'on mamlakatida Ibrohim
bilan Lut boyib ketishdi, ularning
qo'y, sigir va chorvalari bor edi,
ammo ular endi birga yashay
olmas edilar.



Bir kuni Lutning cho'ponlari
Ibromning cho'ponlari bilan
janjal qilishdi. Shunda Ibrom
Lutga: "mendan ajralib istagan
tomoningga keta qol" -dedi.



Lut o'ziga chiroyli o't bilan qoplangan
maysazorli joyni tanladi. U joy
Lutning ko'ziga keng va chiroyli
ko'rinar edi. Lekin u
yerning odamlari
yovuz edilar.



Lut Ibromdan ayrilgandan keyin,
Hudovand Ibromga: "sen ko'rib
turgan mamlakatning hammasini
Men senga va zurriyotingga
abadiy beraman" - dedi.



Ammo Ibrom bilan Sorayning
bolalari yo'q edi. Qanday qilib
Hudovand O'z va'dasini amalga
oshirishi mumkin edi?





Bir kuni Hudovand Ibrom bilan Sorayning oldiga O'zining uchta odamlarini yubordi.





Ular Ibromga "Tez orada sen bilan hotining farzandli bo'lasizlar" - dedilar. Soray esa kuldi. U Hudoning va'dasiga ishonmadi. Chunki Soray 90 yoshda edi.






Hudovand Ibromga: "endi sen
Ibrom emas balki Ibrohim "halqlarning otasi" - deb
atalgaysan, sening hotining esa Soray emas balki
Soro "ya'ni Beka" bo'lsin" - dedi.



Hudovand Ibrohimga
yana ikkita yovuz Sado'm
va G'amo'ra shaharlarini
buzib tashlashini aytdi.
Ibrohimning jiyani Lut
o'sha yurtlarda yashar
edi.




Hudovandi Karim Lutni
ogohlantirilgandan
keyin, Lut Hudonga
bo'ysundi ammo uning
qizlari va kuyovlari
Sado'mni tark etishni
inkor etdilar.
Naqadar fojiali
chunki ular
Hudoning gapiga
quloq solmadilar.



Nihoyat Lut va uning qizlari
shahardan qochib ketishdi.
Hudovand Sado'm bilan
G'amo'ra ustiga osmondan,
olovli oltingugurt yog'dirdi.

Bu shaharlar yer
bilan yakson
bo'ldi.



Farishtalar unga: "halok bo'lmaslik uchun orqaga hech qarama" - deb aytishdi.



Afsuski Lutning hotini
orqasiga qarab, tuz
tiragiga aylanib
qoldi.



Hudovandi Karim
Ibrohim va Soroga
bergan va'adasini
bajardi. Ular
farzandli
bo'lishdi
va Ishoq
tug'ilgandan
keyin ularning
hursandchiligi
naqadar
buyuk edi.



Ibrohim
Hudoning: "men
senga va sening
zurriyotinga, Kan'on
yerini beraman" -
degan yana boshqa
va'dasini

esida
tutdi.



Hudovand
O'zining mana shu
bergan va'dasini ham
bajardi. Hudovand
bergan va'dalarini
har doim bajaradi.



Hudoning Ibrohimga bergan va'dasi

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Ibtido 11-21

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:

Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

